

Oilaga muhabbat

Nigora Tursunboyeva,

Is 'hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabining 9- "A "sinf o 'quvchisi

Kech kuz. Atrofga qorong'ulik tusha boshladi. Ko'chadan ketib boralar ekanman, turli xil piyoda odamlarga ko'zim tushdi. Kimdir uyga shoshgan, yana kimdir sovuq bo'lishiga qaramay, skameykada gazeta o'qish bilan band. Jimgina ketib borar ekanman, nogohon bir to'da kuchukchalarga ko'zim tushdi. Yaqinroq borib qaradim. Behol yotgan onasini oldiga borib juda g'amgin ingranishardi. Bilishimcha, onasi betob. Asta sumkamni olib qaradim, ichida tushlik payti ovqatlanganimdan qolgan bir burda non bor ekan. Oldim-u, kuchukchalarga tashladim. Och bo'lsa-da nonni onalari oldiga surdi. Onasi nonni yedi. Hayron qoldim. Shu hayvonlarda ham mehr bor-a?!

Bir payt suyak tishlagan bir kattakon it paydo bo'ldi. U ham suyakni kasal yotgan itga berdi. Boshini ko'tarib, suyakni g'ajiy boshladi va ancha tetiklashdi. Bir payt hammalari bir-birlarining pinjiga tiqilib yotib olishdi. Yo'lda davom etarkanman, qo'shnimiz Nasiba xola yodimga tushdi. Nahotki hayvonlar odamlardan mehribon?!

Nasiba xolani kasal holida farzandlari tashlab ketishgan. Qo'shnilar undan xabardor bo'lib turishardi. Demak kuchukchalar, Nasiba xolaning farzandlaridan mehribonroq ekan.

Xayol bilan bo'lib uyga qanday yetib kelganimni bilmay qoldim.

Har kuni uyga kelsam, issiq ovqat tayyor, uylar toza. Onam oshxonadan belini ushlab chiqib keldi.

-Xa qizim, parishonsan?

-Yo'q oyi, o'zim shunchaki... Belingiz og'riyaptimi?

-E, bilasan-ku, eski kasalim...

Nahotki onamni betobligiga e'tibor bermagan bo'lsam?

Dadam ham odatiy holdek ko'nikib ketgan...

Onamga qaradim. Yuzlariga ajin tushibdi. Beixtiyor kuchuk bolalari ko'z oldimga keldi.

Och bo'lsada nonni onalariga ilindi. Betobligi uchun onasining atrofida parvona. Shu hayvonchalik aqlim yo'qmi? Alloh bergen shunday oilam bor. Biron marta ota-onam, buvijonimni ko'nglini olmabman. Ukam bilan akam, singlim ham o'z ishlari bilan ovvora. Onajon, meni kechiring. Ich-ichimdan yig'i keldi. Hamma kechki ovqatga yig'ildi. Yana onam hammadan kech kelib o'tirdi. Ovqatlanib birin-ketin turib ketishdi. Onam bir o'zi ovqatlanib, idishlarni yig'ishtira boshladi.

Yugurib borib qo'lidan idishlarni oldim.

- Bering, o'zim yuvaman.

Onam ko'zlarini pirpiratib hayron qoldi.

- Endi bu oilada boshqacha bo'ladi, onajon. Bu oilada hamma sizga mehr ko'rsatadi. Bu mening oilam, dedim sekingina.

-Oilaga mehr ko'rsatishni, oila muqaddasligini itlardan o'rgandim, ona.

- Isitmang yo'qmi, qizim?

Onam hayron edi.

- Siz hotirjam dam oling, onajon.

Onam asta deraza yoniga borib, namlangan ko'zlarini artdi-da, meni mahkam bag'riga bosdi.

Mehribon onam bor. Mehribon oilam. Shu o'ylar bilan birga, uzoqda yonib turgan chiroqlar ko'z oldimdan soat millaridek o'tardi.